



Hurmatli talabalar, magistrantlar, yosh olimlar va ilmiy tadqiqotchi doktorantlar!!!

- 1) 01.00.00 - FIZIKA-MATEMATIKA
- 2) 02.00.00 - KIMYO
- 3) 03.00.00 - BIOLOGIYA
- 4) 04.00.00 – GIOLOGIYA
- 5) 05.00.00 - TEXNIKA
- 6) 06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI
- 7) 07.00.00 - TARIX
- 8) 08.00.00 - IQTISODIYOT
- 9) 09.00.00 - FALSAFA
- 10) 10.00.00 - FILOLOGIYA
- 11) 11.00.00 - GEOGRAFIYA
- 12) 13.00.00 - PEDAGOGIKA
- 13) 17.00.00 – SANATSHUNOSLIK
- 14) 18.00.00 - ARXITEKTURA
- 15) 19.00.00 - PSIXOLOGIYA
- 16) 22.00.00 - SOTSILOGIYA

16 soha bo'yicha OAK ro'yxatidan o'tgan «ZAMONAVIY FAN TA'LIM VA TARBIYANING DOLZARB MUAMMOLARI» jurnaliga maqolalar qabul qilish doimiy amalga oshiriladi.

OAK ro'yxatidan o'tgan «Zamonaviy fan ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari» ilmiy elektron jurnaliga maqola qabul qilish talablari:

1. Maqola matni ingliz tilida va kamida olti varoqdan iborat bo'lishi lozim.
2. Ikkita taqriz (ichki va tashqi). Maqola tegishli fan yo'nalishi bo'yicha PhD yoki fan doktorining rasmiy taqrizi bilan birga qabul qilinadi.
3. Muallif maqolani ingliz tiliga to'g'ri tarjima qilinganligi yuzasidan kafolat xati taqdim qilinishi zarur. Ilmiy maqolaga faqatgina ingliz tili yonalishida PhDga ega bolgan mutahassis kafolat xati qabul qilinadi.

Maqolada bo'lishi lozim:

1. UDK.
2. Maqola mavzusi (**Title**)
3. Muallifning to'liq ismi familyasi, lavozimi va ish joyi toliq yozilishi lozim va telefon raqami ko'rsatilishi kerak. (**Author information**)
4. Maqola annotatsiyasi uch tilda yozilishi lozim. O'zbek, rus va ingliz tilida (**Abstract**)
5. Kalit so'zlar O'zbek, rus va ingliz tilida (**Key words**)
6. Kirish (**Introduction**)

7. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (**Literature review**)

8. Tadqiqot metodologiyasi (**Research Methodology**)

9. Tahlil va natijalar (**Analysis and results**)

10. Xulosa va takliflar (**Conclusion/Recommendations**) Maqolaning asosini tashkil qilib asosan otkazilgan tadqiqod yoki tajriba yuzasidan kamida 3ta taklif aniq va londa qilib 1)...2)...3)... tartibida ko'rsatilishi lozim.

11. Adabiyotlarning ro'yxati ingliz tilida [1], [2], [3] ketma-ketligida qo'yiladi va maqolada foydalanilgan joyida [1],[2],[3]...tartibida keltiriladi xamda foydalanilgan adabiyotlar soni kamida 10-15 manbadan iborat bo'lishi lozim. (**References**)

12. Maqola matni shrifti "Times New Roman"da, 14 kegelda bo'lib, qatorlar oraliqlari masofasi 1.5 intervalda bo'lishi lozim. Maqola matni sahifasining barcha (o'ng, chap, yuqori va quyi) tomonidan 2 santimetrdan iborat masofa qoldiriladi.

13. Qayd etilgan talablar asosida shakillantirilgan **maqolalar maxsus plagiat tekshiruvidan o'tkaziladi, 70% va undan yuqori o'ziga hoslik ko'rsatkichi bo'lgan maqolalar qabul qilinadi** va shundan song taxririya kengash a'zolariga maqolani ko'rib chiqish uchun taqdim qilinadi.

Yuqoridagi talablar darajasida rasmiylashtirilmagan maqolalar qabul qilinmaydi va muallifga yozma javob berilmaydi. Qabul qilingan maqolalar o'rnatilgan tartibda to'lov amalga oshirilgandan so'ng saytda e'lon qilinadi va elektron to'plamga kiritiladi. Elektron to'plam maqolalar kelib tushishiga qarab davriy nashr qilinadi va to'plam holda <http://khorezmscience.uz> saytida e'lon qilinadi.

Muallif maqolani word shakilda ichki, tashqi taqriz va kafolat xatini PDF shakilda ziplangan elektron papkaga ism sharifini hamda jurnal yo'nalishlaridan to'g'ri keladigan yo'nalish nomini yozib telegram kanali [@Readerkit86](https://t.me/Readerkit86) orqali, yoki readerkit86@gmail.com elektron pochta shaxsiyatiga hamda <http://khorezmscience.uz> saytida ro'yxatdan o'tgan holda jo'natishi mumkin. Boshqa ma'lumotlar uchun Allabergenov (+99891-018-0702) bilan bog'laning.



ELEKTRON JURNALDA ILMIY MAQOLA CHOP ETISH AFZALLIKLARI.

Bir vaqtlari qandaydir ma'lumot yoki asarni topish uchun albatta kutubxonaga yoki kitob dokoniga borish lozim edi. Bugun barcha turdagi axborot almashinuvi to'raligicha electron tizimga o'tib b'oldi. Har qanday izlanuvchi Internet atalmish korinmas olamga ulanish uchun o'zining dastgoxidagi maxsus tugmani bosib izlayotgan mavzusini yozishning o'zi kifoya. Bir zumda o'sha mavzudagi axborot paydo boladi.

Ho'sh, oddiy va eski usuldgi bosma tarzda chop etiladigan maqolalardan electron tarzda chop etiladigan maqolalar nimasi bilan farq qiladi? Bu savolning ozida javob yozilgandek. Faqat uni yana bir bor shunchaki sanab o'tamiz.

1. Elektron formatdagi jurnalni o'z vaqtida olish va yetkazib berish xizmatining ishiga bog'liq bo'lmaydi. Bilamizki, qator hududlarda o'quvchilar jurnallarning bosma versiyalarini har doim ham o'z vaqtida olishmaydi, bu esa muayyan noqulayliklar va noroziliklarni keltirib chiqarmoqda. Elektron versiyaga o'tish bu muammoni bartaraf etish imkonini beradi.

2. Jurnalning elektron versiyasi muallifga arzonroq tushadi. Noshir yetkazib berish va bosish uchun xarajat qilmaydi hamda u mazkur tejamkorlikni mualliflar bilan ham baham ko'radi.

3. Elektron jurnalda ma'lumot izlash zamonaviy dasturiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Izlash satrida kalit so'zlarni kiritish kifoya – natija darrov ko'rinadi! U yoki bu material bosma jurnalning qaysi sonida chop etilganini eslab, uni sahifalarini varaqlashga umuman hojat yo'q!

4. Elektron jurnallarda maqolalar va materiallarning mualliflari havola keltirayotgan barcha huquqiy hujjatlar bazasi saqlanadi va bularning hammasi mutlaqo bepul!

5. Elektron tarzda e'lon qilingan maqolalarni dunyoning istalgan nuqtasidan internet tarmogiga ulangan holda o'qish mumkin. Buning uchun muallif ismi sharifi yoki izlanyotgan mavzuni yozilshining o'zi etarli.

6. Eng asoiysi muallif qanchalik boy va qiziqarli ma'lumot to'plagan bo'lsa uning maqolasidan shunchalik ko'p foydalanishadi va bu o'z o'rnida muallifning iqtiboslik darajasini oshishiga xizmat qiladi va qisqa muddatda muallifni o'z sohasida dunyoga tanitadi.

Bunday manfaatlarni yaxshi tushunib yetgan mualliflarning soni yildan-yilga ortib boryapti. Agar bundan besh yil muqaddam hali ko'pchilik davriy nashrlardan Internet orqali foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritishni xatto tasavvurlariga sig'dira olishmagan bo'lsa, oxirgi uch yilda dunyo bo'ylab elektron jurnallarda maqola e'lon qiluvchilarning soni besh baravarga ko'paydi.